

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YUMSHOQ TO'QIMALAR  
SARKOMASI BILAN KASALLANISHDA XAVF HUDUDLARNI  
ANIQLASH.**

*S.J.Sheraliyeva, D.Sh.Polatova*

*Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti, Toshkent, O'zbekiston*

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЗОН ОПАСНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН  
ПРИ САРКОМЕ МЯГКИХ ТКАНЕЙ.**

*С.Ж. Шералиева, Д.Ш. Полатова*

*Ташкентский государственный стоматологический институт, Ташкент,  
Узбекистан*

**DETERMINATION OF DANGER ZONES IN THE REPUBLIC OF  
UZBEKISTAN WITH SOFT TISSUE SARCOMA.**

*S.J. Sheraliyeva, D.Sh. Polatova*

*Tashkent State Stomatology Institute, Tashkent, Uzbekistan*

**Цель:** изучить заболеваемость саркомой мягких тканей в Республике Узбекистан в региональном масштабе и выявить зоны риска.

**Материал и методы:** проведено исследование заболеваемости саркомой мягких тканей среди населения Республики Узбекистан за 2015-2021 годы обследовано 3043 больных с СВТ, находившихся на лечении и наблюдении в РИО и НИИАТМ и филиалах, и изучены все показатели заболеваемости.

**Результат:** По общему показателю заболеваемости саркомами мягких тканей в Республике Узбекистан в 2015-2022 годах видно, что уровень заболеваемости в городе Ташкенте, Сурхандарьинской области, Кашкадарьинской области, Бухарской и Хорезмской областях выше, чем в других регионах. При анализе по полу в Сырдарье 61% женщин, в Бухаре 58%, в остальных регионах высокий уровень заболеваемости был у мужчин.

**Заключение:** выявление высокой заболеваемости саркомой мягких тканей в городе Ташкенте, Сурхандарьинской, Кашкадарьинской, Бухарской и Хорезмской областях Республики Узбекистан является основой для повышения качества профилактических осмотров в этих регионах в будущем. Ключевые слова: Саркома мягких тканей, заболеваемость, зона риска.

**Purpose:** to study the incidence of soft tissue sarcoma in the Republic of Uzbekistan on a regional scale and to identify risk areas.

**Material and methods:** study of the incidence of soft tissue sarcoma in the population in the Republic of Uzbekistan during 2015-2021. 3043 patients with YTS treated and monitored at RIO and RIATM and branches were examined and all indicators of morbidity were studied.

**Results:** According to the general incidence rate of soft tissue sarcomas in the Republic of Uzbekistan in 2015-2022, it can be seen that the incidence rate in Tashkent city, Surhondarya region, Kashkadarya region, Bukhara and Khorezm regions is higher than in other regions. When analyzed according to gender, 61% of women were in Syrdarya, 58% in Bukhara, and in the rest of the regions, the incidence was high in men.

**Conclusion:** the detection of a high incidence of soft tissue sarcoma in Tashkent city, Surhondarya, Kashkadarya, Bukhara and Khorezm regions in the Republic of Uzbekistan is a basis for improving the quality of preventive examinations in these regions in the future. Key words: Soft tissue sarcoma, incidence rate, risk area.

Tibbiyot taraqqiyoti insoniyat taraqqiyotiga chambarchas bog'lik ravishda rivojlanib kelayotganligiga qaramay ko'plab tibbiy muammolar o'z yechimini kutmoqda. Ana shunday dolzarb muammolardan biri yumshoq to'qimalar sarkomasi (YTS) xastaligidir. YTSning muammoli jhati shundan iboratki, bu kasallikning xilma-xilligi va shu bilan birga kasallikni aksariyat yoshlarda uchrashi, agressiv kechishi, tez avj olishi, uzoq metastazlar berishi, tez qaytalanishi va davo natijalarining kam naf berishidir.


YTS ni davolash boshqa onkologik kasalliklari ichida eng murakkab va muammolidir. Kasallikka chalingan bemorlarning 50% dan ortig'i mehnatga layoqatli yoshdagi insonlar bo'lib, rivojlangan davlatlarda 1 yillik o'lim ko'rsatkichi 26% va 5 yillik yashovchanlik ko'rsatkichi esa 30%dan yuqoriligi bu kasallikning keskin agressiv kechishidan darak beradi. Bir kichik turni davo usuli boshqa bir kichik turga ta'sir qilmasligi – xar bir bir kichik tur uchun individual davo uslubini qayta ishlab chiqish kerakligini ko'rsatadi. Shu kungacha turli davo usullari qo'llab ko'rilishiga qaramay, o'tkazilgan davo muolajalaridan keyingi mahalliy qaytalanish ko'rsatkichi 15 dan 60% gacha yuqori ko'rsatkichlarda qolmoqda. Bu esa o'z navbatida YTSni davo usullari samaradorligi borasida mukammal yechim topish maqsadida kelgusi ilmiy-amaliy izlanishlarning olib borilishini taqozo etadi.

**Maqsad:** O'zbekiston Respublikasida yumshoq to'qimalar sarkomasi bilan kasallanishni viloyatlar miqyosida o'rganish va xavf hududlarni aniqlash.

**Material va uslublar:** O'zbekiston Respublikasida aholining yumshoq to'qima sarkomalari bilan kasallanishini o'rganish 2015-2021 yillar davomida RIO va RIATM va filiallarida davolangan va nazoratda turgan 3043 nafar YTS bilan kasallangan

bemorlarda tekshirish ishlari olib borildi. Ulardan 1770 nafari erkak va 14 73 nafari esa ayol bemorlar tashkil etdi. YTS bilan kasallanishning “qo’pol” va standartlashtirilgan ko’rsatkichlari o’rganildi. Ishning axborot asosini Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va filiallarining tibbiy hisobot hujjatlarining 2015-2021 yillar ma’lumotlari tashkil etdi.


**Natija:** O’zbekiston Respublikasida 2015-2022 yillarda yumshoq to’qima sarkomalari bilan umumiy kasallanish ko’rsatkichiga ko’ra, Toshkent shahar, Surhondaryo viloyati, Qashqadaryo viloyati, Buxoro va Xorazm viloyatlarida kasallanish boshqa viloyatlarga nisbatan yuqorigini ko’rish mumkin (1- rasm).




**Rasm**

**1.** O’zbekiston Respublikasida 2015-2022 yillarda yumshoq to’qima sarkomalari bilan kasallanish ko’rsatkichining viloyatlar miqyosidagi tahlili (100 ming aholiga)

YTS bilan birlamchi kasallangan bemorlarni yashash joyi va jinsiga ko’ra viloyatlar miqyosida o’rganib chiqilganda, Toshkent shahardan boshqa barcha hududlarda asosan qishloqda yashaydiganlarda kuzatilgan (2-rasm). Jinsiga ko’ra tahlil qilib chiqilganda esa Sirdaryoda 61%, Buxoroda 58% ayollar tashuul etib, qolgan



**Rasm 2.** O'zbekiston Respublikasida 2015-2022 yillarda yumshoq to'qima sarkomalari bilan kasallanish ko'rsatkichining viloyatlar miqyosida shahar va qishloq aholisiga ko'ra tahlili (100 ming aholiga)



**Rasm 3.** O'zbekiston Respublikasida 2015-2022 yillarda yumshoq to'qima sarkomalari bilan kasallanish ko'rsatkichining viloyatlar miqyosida jinsiga ko'ra tahlili (100 ming aholiga)



O'zbekiston Respublikasida 2015-2022 yillarda yumshoq to'qima o'smalari bilan kasallanishning viloyatlar miqyosida tarqalishi ko'rsatkichi 100 ming aholiga nisbati ko'rib chiqilganda asosan qishloq aholisida kasallanish ko'rsatkichi yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasida 2015-2022 yillarda yumshoq to'qima o'smalari bilan kasallanishning viloyatlar miqyosida tarqalishi ko'rsatkichi 100 ming aholiganisbati o'rganib chiqilganda esa erkaklarda kasallanish ko'rsatkichi ayollarga nisbatan yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z-o'zidan erkaklarni YTS bilan kasallanish xavfi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa:** O'zbekiston Respublikasida 2015-2022 yillarda yumshoq to'qimalar sarkomasi bilan kasallanishning viloyatlar miqyosida tarqalishi o'rganib chiqilganda, Toshkent shahar (16,6), Surhondaryo viloyati (8,8), Qashqadaryo viloyati (9), Buxoro (13) va Xorazm (10,2) viloyatlarida kasallanish boshqa viloyatlarga nisbatan yuqorigini ko'rish mumkin. Jinsiga ko'ra tahlil qilib chiqilganda esa Sirdaryoda 61%, Buxoroda 58% ayollar tashuil etib, qolgan hududlarda esa erkaklarda kasallanish yuqori aniqlangan. O'zbekiston Respublikasida 2015-2022 yillarda yumshoq to'qima o'smalari bilan kasallanishning viloyatlar miqyosida tarqalishi ko'rsatkichi 100 ming aholiga nisbati o'rganib chiqilganda esa erkaklarda kasallanish ko'rsatkichi ayollarga nisbatan yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi ko'rsatkichlarga ko'ra, yumshoq to'qimalar sarkomasi bilan kasallanish yuqori hududlarni aniqlanishi kelgusida shu hududlarda profilaktik ko'ruvlar sifatini oshirish uchun zamin bo'lib hisoblanadi.

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YUMSHOQ TO'QIMALAR SARKOMASI BILAN KASALLANISHDA XAVF HUDUDLARNI ANIQLASH.**

*S.J.Sheraliyeva, D.Sh.Polatova*

*Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti, Toshkent, O'zbekiston*

**Maqsad:** O'zbekiston Respublikasida yumshoq to'qimalar sarkomasi bilan kasallanishni viloyatlar miqyosida o'rganish va xavf hududlarni aniqlash.

**Material va uslublar:** O'zbekiston Respublikasida aholining yumshoq to'qima sarkomalari bilan kasallanishini o'rganish 2015-2021 yillar davomida RIO va RIATM va filiallarida davolangan va nazoratda turgan 3043 nafar YTS bilan kasallangan bemorlarda tekshirish ishlari olib borildi hamda kasallanishni barcha ko'rsatkichlari o'rganildi.

**Natija:** O'zbekiston Respublikasida 2015-2022 yillarda yumshoq to'qima sarkomalari bilan umumiy kasallanish ko'rsatkichiga ko'ra, Toshkent shahar, Surhondaryo viloyati, Qashqadaryo viloyati, Buxoro va Xorazm viloyatlarida kasallanish boshqa viloyatlarga nisbatan yuqorigini ko'rish mumkin. Jinsiga ko'ra

tahlil qilib chiqilganda esa Sirdaryoda 61%, Buxoroda 58% ayollar tashuil etib, qolgan hududlarda esa erkaklarda kasallanish yuqori aniqlangan.

**Хулоса:** O'zbekiston Respublikasida hududida Toshkent shahar, Surhondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlarida yumshoq to'qimalar sarkomasi bilan kasallanish yuqoriligi aniqlanishi kelgusida shu hududlarda profilaktik ko'ruvlar sifatini oshirish uchun zamin bo'lib hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Yumshoq to'qimalar sarkomasi, kasallanish ko'rsatkichi, xavf hudud.

